

OILA MUHITIDA BOLALARNING MEDIA ISTE'MOLINI ONGLI BOSHQARISH VA MEDIASAVODXONLIK MASALALARI

Umarova Dilnavoz Najmiddin qizi

Navoiy innovatsiyalar universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18504437>

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy axborotlashgan jamiyat sharoitida bolalarning media iste'molini nazorat qilish masalasi oilaviy tarbiya nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqotda raqamli texnologiyalar, internet va smartfonlarning bolalar ongiga ta'siri, nazoratsiz axborot oqimining salbiy oqibatlari hamda mediasavodxonlikning tarbiyaviy ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, O'zbekistonda bolalar uchun xavfsiz media muhitini shakllantirishga qaratilgan davlat tashabbuslari va xalqaro tajribalar qiyosiy tahlil asosida ko'rib chiqiladi. Maqolada bolalarning media iste'molini cheklash emas, balki ongli boshqarish, muqobil milliy kontentni rivojlantirish va oilaviy muhitda tanqidiy fikrlashni shakllantirish eng samarali yo'l ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: media iste'moli, media madaniyati, mediasavodxonlik, oila tarbiyasi, bolalar kontenti, raqamli xavfsizlik.

Аннотация: В статье рассматривается проблема контроля медиапотребления детей в условиях современного информационного общества с позиции семейного воспитания. Анализируется влияние цифровых технологий, интернета и смартфонов на формирование мировоззрения и ценностных установок детей, а также негативные последствия неконтролируемого информационного потока. Особое внимание уделяется роли медиаграмотности как важного воспитательного ресурса. На основе сравнительного анализа освещаются государственные инициативы Республики Узбекистан и международный опыт в сфере формирования безопасной медиасреды для детей. Обосновывается вывод о том, что эффективным подходом является не запрет медиаконтента, а его осознанное регулирование, развитие национального детского контента и формирование критического мышления в семейной среде.

Ключевые слова: медиапотребление, медиакультура, медиаграмотность, семейное воспитание, детский контент, цифровая безопасность.

Abstract: This article analyzes the issue of controlling children's media consumption in the context of a modern information society from the perspective of family upbringing. The study examines the impact of digital technologies, the internet, and smartphones on children's worldview and value formation, as well as the negative consequences of uncontrolled information exposure. Special attention is paid to media literacy as a key educational and protective factor. The article also provides a comparative overview of national initiatives in Uzbekistan and international practices aimed at creating a safe media environment for children. The findings emphasize that effective control should focus not on strict restrictions, but on conscious regulation, the development of alternative national children's content, and the cultivation of critical thinking within the family environment.

Keywords: media consumption, media culture, media literacy, family upbringing, children's content, digital safety.

Kirish. Zamonaviy axborotlashgan jamiyat sharoitida bola tarbiyasi an'anaviy ta'lim institutlari — maktab va maktabgacha ta'lim muassasalari bilan cheklanib qolmay, kengroq

ijtimoiy va madaniy makonda shakllanmoqda. Bugungi kunda bolalarning dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi, xulq-atvori va estetik didi ommaviy axborot vositalari, xususan, televideniye, internet, ijtimoiy tarmoqlar, video platformalar hamda mobil ilovalar orqali faol ta'sir ostida rivojlanmoqda. Shu bois media makoni tarbiyaviy jarayonning muhim omillaridan biri sifatida oilaviy muhit bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'lmoqda.

O'zbekistonda televideniye hanuz ommaviy axborotning asosiy manbalaridan biri bo'lib qolayotgan bo'lsa-da, raqamli texnologiyalar va smartfonlarning tez sur'atlar bilan ommalashuvi, ayniqsa bolalar va o'smirlar orasida, media iste'moli masalasini yanada dolzarb qilmoqda. Bu jarayon ota-onalar zimmasiga yangi pedagogik va tarbiyaviy mas'uliyatni yuklaydi. Endilikda farzandlarning media bilan munosabatini qat'iy taqiqlar orqali emas, balki tartibli boshqaruv, ongli yo'naltirish va xavfsiz axborot muhitini shakllantirish orqali tashkil etish zarurati yuzaga kelmoqda. Chunki barqaror va samarali tarbiya bolani axborotdan uzib qo'yish emas, balki uni tanqidiy fikrlay oladigan, mas'uliyatli va ongli media iste'molchisi sifatida voyaga yetkazishni talab etadi.

Natija va muhokama. Zamonaviy media makonida bolalar uchun asosiy muammo axborotning ko'pligida emas, balki uning nazoratsiz va tartibsiz holda iste'mol qilinishidadir. Avval ota-onalar farzandlarining media faoliyatini kuzatishi nisbatan oson bo'lgan: televideniye yoki kompyuterlar odatda uyning umumiy joylarida joylashgan bo'lib, bolalar ko'rayotgan kontent ota-onalar nigohidan chetda qolmagan. Bugungi kunda esa smartfonlar shaxsiy qurilmaga aylangani sababli bola ko'pincha yolg'iz holda, quloqchin orqali, algoritmik tavsiyalar va reklama oqimi ichida media kontent iste'mol qilmoqda. Internetning chegarasizligi bu jarayonni yanada murakkablashtiradi: zararli axborot shakllari doim yangilanib boradi, nazorat mexanizmlari esa bu tezlikka moslashishga majbur bo'lmoqda. Shu bois bolalarni himoyalash masalasi faqat texnik bloklash yoki cheklash bilan emas, balki oilaviy muhitda mediasavodxonlik va ongli tarbiyaviy yondashuvni shakllantirish bilan bog'liq holda hal etilishi lozim.

So'nggi yillarda O'zbekistonda bolalar uchun xavfsiz media muhitini yaratish masalasiga davlat darajasida e'tibor kuchaygani ham ushbu muammoning dolzarbligidan dalolat beradi. Xususan, Prezident Shavkat Mirziyoyev 2025-yil 15-may kuni maktab ta'limi masalalariga bag'ishlangan yig'ilishda yoshlar ma'naviyati bilan shug'ullanuvchi tuzilmalar ko'pligiga qaramay, zararli axborotlarga qarshi tura oladigan, milliy ruhdagi bolalar kontentini yaratish va uni tizimli targ'ib qilish bilan shug'ullanuvchi professional tashkilot yo'qligini alohida ta'kidlagan [1]. Ushbu fikr amaliy davom ettirilib, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi qoshida Bolalar kontentini rivojlantirish markazi tashkil etildi. Mazkur markaz bolalar tarbiyasi va sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatadigan kontentni tahlil qilish, milliy bolalar kontentini rivojlantirish hamda ijodkorlarni qo'llab-quvvatlashni o'zining asosiy vazifalari etib belgilagan bo'lib, bu qaror huquqiy jihatdan Lex.uz bazasida mustahkamlangan [2]. Markaz faoliyatiga rejissyor Jahongir Ahmedov rahbar sifatida jalb etilgani ham bolalar kontenti masalasiga ijodiy va professional yondashuv zarurligini ko'rsatadi. Ushbu yondashuvning mohiyati shundaki, bolalarni zararli axborotdan himoyalashning eng samarali yo'li ko'pincha taqiqlash emas, balki qiziqarli, foydali va milliy ruhdagi muqobil kontentni ko'paytirishdan iboratdir.

Bugungi raqamli muhitda bolalar va o'smirlar orasida turli **submadaniyatlar** shakllanib bormoqda. Ijtimoiy tarmoqlardagi trendlar, challenge'lar, geymerlik madaniyati, virtual qahramonlar, bloggerlar atrofida to'plangan auditoriyalar bolalarning o'ziga xos ijtimoiy

identitetini vujudga keltirmoqda. Bunday submadaniyatlar bir tomondan bolalarning o'zini ifoda etishi va jamoaga tegishlilik hissini kuchaytirs, ikkinchi tomondan ota-onalar va pedagoglar tomonidan tushunilmasa, avlodlar o'rtasida axborot va qadriyatlar tafovutini yuzaga keltirishi mumkin. Aynan shu jihat oilaviy muhitda media iste'molini boshqarishda faqat nazorat emas, balki tushunish va muloqot muhimligini ko'rsatadi.

Media iste'molini nazorat qilish masalasi insonning axborotga bo'lgan fundamental huquqlari bilan ham uzviy bog'liq. UNESCO media va axboriy savodxonlik konsepsiyasida bu masala bevosita Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 19-moddasiga tayangan holda talqin etiladi, ya'ni har bir inson axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega bo'lishi bilan birga, ushbu axborotni ongli va mas'uliyat bilan qabul qilish ko'nikmalariga ham ega bo'lishi lozim [3]. UNESCO tomonidan 1982-yilda qabul qilingan Grünvald deklaratsiyasida media ta'limni maktab va jamiyat miqyosida rivojlantirish zarurligi urg'ulangan bo'lsa, 2005-yildagi Aleksandriya deklaratsiyasida mediasavodxonlik umrbod ta'limning ajralmas asosi sifatida e'tirof etilgan va axborotni tanqidiy baholash, undan samarali foydalanish hamda yangi axborot yaratish ko'nikmalari zamonaviy inson uchun zarur kompetensiyalar sifatida belgilangan [4]. Ushbu tamoyillar oilaviy tarbiya jarayonida sodda, ammo muhim qoidaga aylanadi: bola ko'rgan axborotni darhol haqiqat sifatida qabul qilmasligi, savol berishi, solishtirishi va kattalar bilan muhokama qilishi kerak.

Ilmiy tadqiqotlarga tayanadigan bo'lsak, bolalarning raqamli muhitda uzoq vaqt qolishi ularning ijtimoiy xulqi va dunyoqarashiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi. Xususan, Common Sense Media ma'lumotlariga ko'ra, 8–12 yoshli bolalarda kunlik media ekran vaqti o'rtacha 5,5 soatni tashkil etadi [5]. Smartfonlarning keng tarqalishi esa bu jarayonni yanada murakkablashtirmoqda: Piper Sandler kompaniyasining 2025-yil bahorgi “Taking Stock With Teens” so'roviga ko'ra, AQShdagi o'smirlarning 88 foizi iPhone'dan foydalanadi yoki keyingi telefon sifatida aynan iPhone'ni tanlashni rejalashtirgan [6]. Bu raqamlar shuni ko'rsatadiki, nazorat muammosi endi “kompyuter qayerda joylashgan?” degan savol bilan emas, balki “bola smartfon bilan yolg'iz qolganida qanday axborot muhitiga tushib qoladi?” degan masala bilan belgilanmoqda.

Xalqaro tajriba ham bolalarni zararli kontentdan himoyalashda faqat tarbiyaviy emas, balki huquqiy mexanizmlarning ahamiyatini ko'rsatmoqda. Statestik rasmiy ma'lumotlarga tayanadigan bo'sak, Buyuk Britaniyada 2023-yil 26-oktyabrda qabul qilingan Online Safety Act bolalarni zararli va yoshga mos kelmaydigan kontentdan himoya qilish bo'yicha platformalarga qat'iy majburiyatlar yuklaydi [7]. Ofcom tushuntirishlariga ko'ra, 2025-yil 25-iyuldan boshlab ayrim toifadagi kontentlar uchun kuchli yoshni tekshirish mexanizmlarini joriy etish belgilangan [8]. Bolalar xavfsizligi bo'yicha faol ekspertlardan biri bo'lgan “Enough Is Enough” tashkiloti rahbari Donna Rice Hughes ham onlayn muhitda bolalarni himoyalash masalasini doimiy ravishda ko'tarib kelib, ota-onalar, platformalar va davlat organlarining birgalikdagi mas'uliyatini ta'kidlab kelmoqda [9]. Bu yondashuvlar muammoni faqat oilaning ichki nazorati doirasida emas, balki keng ijtimoiy va institutsional mas'uliyat sifatida ko'rish zarurligini anglatadi.

Shu jihatdan olib qaraganda, oilaviy muhitda media iste'molini boshqarishning eng samarali yo'li qat'iy taqiqlardan ko'ra, tizimli va tarbiyaviy yondashuv hisoblanadi. Ochiq muloqot orqali bola bilan ishonchli munosabat o'rnatish, ekran vaqti uchun aniq rejim belgilash, media kontentni birgalikda tomosha qilib muhokama qilish, texnik nazorat

vositalaridan yordamchi sifatida foydalanish va eng muhimi, foydali hamda milliy ruhdagi muqobil kontentni taklif etish bolalarning ongli media iste'molchisi sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Davlat darajasida bolalar kontentini rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslar esa oilalar uchun real yordam va mustahkam tayanch bo'la oladi [2]. **Xulosa qilib aytganda**, bolalarning media iste'molini nazorat qilish masalasi zamonaviy jamiyatda texnik cheklovlar bilan hal etilmaydigan, balki oilaviy tarbiya, mediasavodxonlik va ijtimoiy mas'uliyat uyg'unligini talab qiladigan jarayon sifatida namoyon bo'lmoqda. Davlat darajasida bolalar kontentini rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslar muammoni tizimli hal etishga xizmat qilsa, xalqaro tajriba va ilmiy tadqiqotlar mediasavodxonlikni eng samarali himoya omili sifatida tasdiqlaydi. Shu nuqtayi nazardan, bolalarni axborotdan cheklash emas, balki ularni ongli, tanqidiy va mas'uliyatli media iste'molchisi sifatida tarbiyalash xavfsiz media muhitini shakllantirishning eng muhim sharti hisoblanadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Sardor Yusupov. Bolalar kontentini rivojlantirish markazi tashkil qilindi. <https://kun.uz/news/author/Sardor+Yusupov>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 15.05.2025 yildagi PQ-183-son. <https://www.lex.uz/uz/docs/-7528758>
3. UNESCO. *Media and Information Literacy: Policy and Strategy Guidelines*. — Paris: UNESCO, 2013. <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000225606>
4. UNESCO. *Grünwald Declaration on Media Education (1982); Alexandria Proclamation on Information Literacy and Lifelong Learning (2005)*. — UNESCO & IFLA. <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000097899>
<https://repository.ifla.org/handle/123456789/233>
5. Common Sense Media. *The Common Sense Census: Media Use by Tweens and Teens*. — San Francisco, 2021. <https://www.commonsensemedia.org/research/the-common-sense-census-media-use-by-tweens-and-teens-2021>
6. Piper Sandler. *Taking Stock With Teens® Survey — Spring 2025 Results*. — Piper Sandler Companies, 2025. <https://www.pipersandler.com/1col.aspx?id=6218>
7. UK Parliament. *Online Safety Act 2023*. — London: UK Government. <https://www.legislation.gov.uk/ukpga/2023/50/contents>
8. Ofcom. *Age Verification and Online Safety: Protecting Children from Harmful Content*. — London, 2024.
9. Hughes D.R. *Protecting Children from Online Risks and Digital Subcultures*. — Enough Is Enough Organization Reports, Washington, 2020. Elektron manzil: <https://enough.org/issues/online-child-safety>